

Sertifikatlashtirish to'g'risida shartnoma
Shartnoma №

(shartnoma tuzish sana)

Toshkent sh.
(shartnoma tuzish joyi)

(shartnoma shu vaqtgacha amal qiladi)

"TURIZM XIZMATLARINI SERTIFIKATLASH MARKAZI" DUK (bundan buyon - "Bajaruvchi" deb ataladi) nomidan harakat qiluvchi **XONBABAYEV SULTON SUNNATOVICH**, bir tomondan, va _____ (bundan buyon - "Buyurtmachi" deb ataladi) nomidan harakat qiluvchi _____, ikkinchi tomonidan, birligida "Taraflar", alohida esa "Tarafl" deb ataluvchi mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. Shartnoma mazmuni

Ushbu shartnomaga binoan, Mijoz to'laydi va qabul qiladi va ijrochi quyidagi shartlar asosida tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib beradi:

№	Mahsulot nomi (xizmatlar)	Tovar (xizmat)lar Yagona elektron milliy katalogi bo'yicha identifikasiya kodи va nomi	Tovar/xizmat shtrix kodi	O'chov birligi	Miqdori	Narx	Yetkazib berish qiymati	QQS		Yetkazish bahosi QQs bilan
								stavka	summa	
1	Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish hamda turistik industriya ob'ektlarini tasniflash buyicha xizmatlar	10611001001000000 - Sertifikatsiya xizmatlari		xizmat (so'm)					QQS siz	
	Jami									

Shartnomaning umumiy miqdori (summa so'zlar bilan), ()

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yilning 10-iyulidagi 433-soni qarori bilan tasdiqlangan Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish va turistik industriya obyektlarini tasniflash tartibi to'g'risida Nizomga (keyingi o'rnlarda - Nizom), shuningdek amaldagi qonunchilikka muvofiq ushbu shartnomani, keyingi o'rnlarda "Shartnoma" deb yuritiladi, quyidagilar haqida tuzdilar
2. Ushbu Shartnoma shartlari, Nizom talablari va boshqa normativ hujjalarning talablariga muvofiq Bajaruvchi Buyurtmachining mehmon xona xizmatlarni (sertifikatlashtirish obyektni) texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjalarda belgilangan talablariga muvofiqligi yuzasidan sertifikatlashtirish o'tkazadi, Buyurtmachi ushbu Shartnoma shartlarga binoan sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarning haqini to'laydi.
3. Ushbu Shartnoma bo'yicha sertifikatlashtirish obyektingin (xizmatlarning) normativ hujjalarning talablariga muvofiqligini baholash (keyingi o'rnlarda - baholash) ushbu Shartnomaning maqsadlari uchun Bajaruvchi tomonidan o'natilgan tartibda tuziladigan komissiya tomonidan o'tkaziladi

2. Tomonlarning majburiyatları

2.1. Buyurtmachi:

- 2.1.1. sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarga haq to'lashni o'z vaqtida amalga oshirishi lozim;
- 2.1.2. komissiya raisi va (yoki) a'zolari Buyurtmachining kerakli hujjalardan bermalol foydalananishlarini va sertifikatlashtirish obyektingin hududlariga erkin kirishlarini ta'minlashi lozim;
- 2.1.3. normativ hujjalarning talablariga binoan komissiya raisi va (yoki) a'zosining birinchi talabiga ko'ra zarur hujjalarni taqdim qilishi lozim;
- 2.1.4 o'z imkoniyatlari chegarasida komissiya ishi uchun sharoit yaratishi, shu jumladan foydalanimish uch un alohida ish joyi (isitiladigan, havo konditsiyalanadigan), ofis mebeli va texnik vositalar hamda aloqa vositalari ajratishi va komissiyaning sifatli ishlashi uchun zarur bo'lgan boshqa sharoitlar yaratishi lozim;
- 2.1.5 zarur hollarda komissiya raisining talabiga binoan komissiya ishida boshqa shaxslar (mutaxassislar) ishtirokini ta'minlashi lozim;
- 2.1.6. sertifikatlashtirish vaqtida aniqlangan nomuvofiqliklarni Nizomda belgilangan tartib va muddatda barteraf etishi lozim;
- 2.1.7. sertifikat berish to'g'risida qaror olingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kun ichida Bajaruvchiga sertifikat va muvofiqlik belgisini qo'llashga to'lov hisobini taqdim etishi lozim;
- 2.1.8. sertifikat berish to'g'risida qaror olingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kun ichida Bajaruvchiga sertifikat va muvofiqlik belgisini qo'llashga to'lov hisobini taqdim etishi, ushbu to'lovin Bajaruvchining bank hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan to'lashi hamda Bajaruvchi bilan sertifikat va muvofiqlik belgisini qo'llash huquqini taqdim etish to'g'risida bitim (keyingi o'rnlarda - bitim) imzolashi lozim;
- 2.1.9. sertifikatlashtirishga qo'yiladigan, turizm xizmatlarni standartlashtirish sohasida normativ hujjalarning boshqa talablariga rivoja qilishi lozim.

2.2. Bajaruvi:

- 2.2.1. Nizom va boshqa qonun hujjalardan belgilangan tartib va muddatda sertifikatlashtirishni o'tkazishi lozim;
- 2.2.2. Nizomda belgilangan tartib va muddatda sertifikatlashtirish natijalari bo'yicha qaror qabul qilishi lozim;
- 2.2.3. Nizomda belgilangan tartib va muddatda sertifikatlashtirish natijalari bo'yicha qaror qabul qilingan qarorni Buyurtmachiga yuborishi lozim;
- 2.2.4. sertifikatlashtirish natijalari bo'yicha ijobji qaror qabul qilingan holatlarda Nizomda belgilangan tartib va muddatda bitim rasmiylashtirishi va sertifikat berishi lozim;
- 2.3. Tomonlar ushbu Shartnoma muvofiq olingan ma'lumotlarning sir tutilishini ta'minlashi lozim;
- 2.4. Nizomning 10-ilovasiga binoan shakl bo'yicha tuzilgan sertifikatlashtirish obyektni baholash dalolatnomasi sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar o'tkazilganligining tasdig'i hisoblanadi.
- 2.5. Zarurat bo'lganda Bajaruvchi yoki komissiya raisi boshqa mutaxassislarini sertifikatlashtirishda ishtirok etishga jalb qilish huquqiga ega.

3. To'lov miqdori va uni to'lash tartibi

- 3.1. Ushbu Shartnomaga ko'ra Sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar narxi Shartnomaning 1-bandiga ko'ra belgilanadi.
- 3.2. Sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarga haq to'lash ushbu Shartnoma imzolangan vaqtidan boshlab 30 (o'titz) kun ichida Buyurtmachi tomonidan 100 % (yuz foiz) oldindan to'lov yo'lli bilan amalga oshiriladi.
- 3.3. Sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar o'tkazilmagan yoki Nizomda belgilangan muddatda Bajaruvchining aybi bilan sertifikat berilmagan holatlarda sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar haqi Buyurtmachiga qaytarilishi lozim.
- 3.4. Quyidagi hollarda sertifikatlashtirish haqi qaytarib berilmaydi:
- Buyurtmachining aybi bilan sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar o'tkazish imkoniyati bo'lmaganda yoki sertifikat berilmaganda, shu jumladan ushbu Shartnomaning 4.3 va 4.4 bandlari ko'rsatilgan asoslar bo'yicha;
 - Buyurtmachi tomonidan ushbu Shartnomaning 2.1.8 bandi buzilganda;
 - sertifikatlashtirish natijalar bo'yicha salbiy qaror qabul qilinganda;
 - sertifikatlashtirish davomida aniqlangan nomuvofiqliklar Nizomda belgilangan tartib va muddatda Buyurtmachi tomonidan bartaraf etilmaganda;
 - Buyurtmachi sertifikatlashtirish o'tkazishdan ittiyoriy ravishda bosh tortganda.
- 3.5. Sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar, sertifikatlashtirish natijalaridan qat'iy nazar Buyurtmachi tomonidan to'lanadi.

4. Tomonlarning javobgarligi

- 4.1. Buyurtmachi quyidagi lara to'liq javobgar boladi:
- 4.2. Buyurtmachi tomonidan ushbu Shartnomaning 3.2 bandi buzilgan holatlarda sertifikatlashtirish o'tkazish to'g'risidagi qaror kuchini yo'qotadi, Shartnoma esa bekor qilingan hisoblanadi.
- 4.3. Sertifikatlashtirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim qilish kechiktirilgan holatlarda (qasddan yoki ehtiyojsizlik oqibatida) Bajaruvchi o'z ittiyorib bo'yicha ushbu Shartnomani bekor qilish yoki Buyurtmachi tomonidan har bir kechiktirilgan kun uchun sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar narxidan 0,2 % miqdorda penya to'lashni talab qilish huquqiga ega.
- 4.4. Buyurtmachi (uning ischlari) komissiya ishiga to'sqinlik qilganda (qasddan yoki ehtiyojsizlik oqibatida) yoki sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni to'liq o'tkazishga imkoniyat bermaydigan ish sharolitini yaratganda Bajaruvchi o'z ittiyoriga ko'ra ushbu Shartnomani bekor qilish yoki Buyurtmachi tomonidan bunday to'sqlarning har bir kuni uchun sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar narxidan 0,2 % miqdorda penya to'lashni talab qilish huquqiga ega.
- 4.5. Buyurtmachi tomonidan ushbu Shartnomaning 2.1.8 bandi buzilgan holatlarda Bajaruvchining sertifikat berish to'g'risida qaror kuchini yo'qotadi, ushbu Shartnoma bekor qilingan deb hisoblanadi, bu to'g'risida Buyurtmachiga xabarnoma yuboriladi. Bunda Shartnoma bo'yicha to'langan haq Buyurtmachiga qaytarib berilmaydi.
- 4.6. Jarima to'lash Buyurtmachini ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.
- 4.7. Bajaruvchi tomonidan ushbu Shartnomaning shartlari buzilganda Bajaruvchi Buyurtmachiga keltirilgan zararini ushbu Shartnoma bahosidan ko'p bo'limgan miqdorda qoplab beradi.
- 4.8. Sertifikatlashtirish o'tkazish to'g'risidagi qaror, sertifikat berish to'g'risidagi qaror kuchini yo'qotganda va/yoki ushbu Shartnomaning 4.2, 4.3, 4.4 yoki 4.5 bandlari ko'zda tutilgan asoslar bo'yicha ushbu Shartnoma bekor qilinganda, Bajaruvchi Buyurtmachiga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdoriga teng jarimani to'lagandan keyin hamda sertifikatlashtirish o'tkazish to'g'risidagi qaror kuchini yo'qotish va/yoki ushbu Shartnomani bekor qilish bilan bog'liq holda Bajaruvchiga yetkazilgan zararlar (xarajatlar) qoplangandan keyin sertifikatlashtirish o'tkazish to'g'risida ariza bilan qayta murojaat qilish huquqiga ega.

5. Nizolarni hal etish

- 5.1. Buyurtmachi Bajaruvchining qarorlaridan norozi bo'lgan hollarda ushbu qaror bo'yicha "O'zstandart" Agentligi yoki Sudga murojaat qilish huquqiga ega. "O'zstandart" Agentligining qarori qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Sudda ko'rib chiqilishi mumkin.
- 5.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha barcha hal etilmagan nizolar Bajaruvchining joylashgan joyi bo'yicha iqtisodiy sudda ko'rib chiqildi.

6. Fors-major

- 6.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning to'liq yoki qisman bajarilmasligi agar ushbu majburiyatlarning amal qilish vaqtida yengib bo'lmas kuchlarning harakati oqibatida kelib chiqqan bo'lsa, yoki ushbu holatlар mazkur Shartnomani bajarmaslikka bevosita ta'sir qilgan bo'lsa tomonlar majburiyatlar bajarilmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar.
- 6.2. Agar yengib bo'lmas kuchlar natijasida obyektgina jiddiy zarar yetkazilgan bo'lsa, Tomonlar, imzolangan vaqtidan boshlab ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadigan qo'shimcha kelishuv tuzib, ish bajarishning yangi muddati va uning narxini kelishishlari lozim yoki amaldagi qonunchilikka muvofiq Shartnomani bekor qilish tartib-taomilini bajarishlari kerak.
- 6.3. Agar ishlar yengib bo'lmas kuchlarning harakati boshlanguncha amalda bo'lgan ushbu Shartnomaga binoan belgilangan tartibda davom ettirilishi mumkin bo'lsa, ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmas kuchlar va ularning oqibati amal qilishi davomidagi vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

7. Shartnomaning amal qilish muddati va bekor qilish tartibi

- 7.1. Ushbu Shartnoma imzolangan vaqtidan boshlab kuchga kiradi va Buyurtmachiga berilgan sertifikatning amal qilish muddati tugaguncha amal qiladi.
- 7.2. Ushbu Shartnoma mazkur shartnomada nazarda tutilgan holatlarda va qonun hujjatlariga muvofiq bekor qilinishi mumkin.

8. Boshqa shartlar

- 8.1. Ushbu Shartnomaga doir barcha o'zgartirishlar, qo'shimchalar va tuzatishlar yozma shaklda rasmiylashtirilgan bo'lsa va ikkala tomon tarafidan imzolangan bo'lsa haqiqiy hisoblanadi.
- 8.2. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan holatlarda Tomonlar Nizom va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladilar.
- 8.3. Tomonlar pochta (yuridik) manzillari va bank rekvizitlari o'zgargan holatlarda bir-birlariga darhol xabar berishlari kerak.
- 8.4. Ushbu Shartnoma 2 (ikki) nusxada o'zbek tilida tuzildi, Tomonlarning har birida bir nusxdadan saqlanadi va bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi.

9. Tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari

Ijrochi

**Nomi: "TURIZM XIZMATLARINI SERTIFIKATLASH
MARKAZI" DUK**

Manzil: OYBEK KO`CHASI, 18-UY

Telefon: 951991507

Faks:

STIR: 303601974

IFUT (OKED): 79

X/r : 470010860262737089100056001

**Bank: TOSHKENT Sh., MARKAZIY BANKNING
TOSHKENT ShAXAR XISOB-KITOB KASSA MARKAZI**

MFO: 00014

Buyurtmachi

Nomi:

Manzil:

Telefon:

Faks:

STIR:

IFUT (OKED):

X/r :

Bank:

MFO: